

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Kimyo fanlari, kimyoviy texnologiya va nanotexnologiyalar” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Lipoproteinlarning aterogen fraksiyalarini benchtop NMR spektrometer (kompakt yadroviy magnit-rezonans spektrometri YaMR) spektroskopiyasi ma’lumotlari asosida miqdoriy baholash uchun modellashtirish usulini ishlab chiqish va joriy etish	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - odamlarda ilmiy kogort tadqiqotlar va odatiy klinik amaliyot uchun kompakt YAMR-spektroskopiyasi asosida lipoprotein spektrini keng ko‘lamli tahlil qilishning bevosita amaliyotga joriy etishga tayyor usuli ishlab chiqiladi - birinchi marotaba kompakt YAMR-spektrometrida olingan lipoproteinlarning ^1H YAMR-spektral “izlari” kutubxonasi yaratiladi - klinik amaliyotga joriy etish uchun jadallashtirilgan tashxis qo‘yish va xavfni tabaqalashtirish maqsadida kompakt YAMR-spektroskopiyasi ma’lumotlari bo‘yicha lipoproteinlarni tez, ishonchli va laboratoriyalararo o‘tkaziladigan miqdoriy aniqlashga yordam beradigan ilg‘or bashoratli model ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar eksperimental tadqiqotlar va tahlillar ilg‘or texnologiyalar markazi laboratoriyalarida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.

